

MILLIY AXLOQIY MADANIYATNING OILADA FARZAND TARBIYASIGA TA'SIRI

Soatova Guzal Mamatovna

Jizzax politeknika instituti

“Transport muhandisligi” fakulteti dekan muovini

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy axloqiy madaniyatning oila muhitida farzand tarbiyasiga ko'rsatadigan ta'siri yoritilgan. Milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlarining farzand shaxsini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ota-onalarning axloqiy madaniyat darajasi, ularning farzandga namuna bo'lishi hamda zamonaviy axborot oqimida milliy tarbiya tamoyillarini saqlab qolish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Oila, milliy axloqiy madaniyat, farzand tarbiyasi, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, axloq, tarbiya, ota-ona mas'uliyati, ma'naviyat, barkamol avlod.

THE IMPACT OF NATIONAL ETHICAL CULTURE ON THE UPBRINGING OF CHILDREN IN THE FAMILY

Guzal Mamatovna Soatova

Jizzakh Polytechnic Institute

Deputy Dean of the Faculty of “Transport Engineering”

Abstract: This article highlights the influence of national ethical culture on child upbringing within the family environment. The role of national values, traditions, and customs in shaping a child's personality is analyzed. Additionally, the study examines the level of parents' ethical culture, their example-setting for children, and the challenges of preserving national educational principles amid modern information flows.

Keywords: Family, national ethical culture, child upbringing, national values, traditions, customs, ethics, education, parental responsibility, spirituality, well-rounded generation.

Oila har bir jamiyatning eng asosiy ijtimoiy bo'g'ini bo'lib, u avlodlar davomiyligini ta'minlaydi va insonning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Milliy axloqiy madaniyat esa oilada farzand tarbiyasining poydevori hisoblanadi. U milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma'naviy me'yorlar orqali bola shaxsini shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy madaniyatning ana shu kuchli yaratuvchilik, doimo yangilanib boruvchi hayotbaxsh ta'sirini millat yoki xalq bilan chegaralab bo'lmaydi. Shunga ko'ra, oila nasllar davomiyligini ta'minlovchi doimiy va tabiiy manba bo'lib, har bir davr oilaga o'z ta'sirini o'tkazadi, ya'ni davrga xos ijtimoiy o'sish-o'zgarishlar, islohotlar, ma'naviy-ruhiy yangilanishlar oila ma'naviyatida o'z izini qoldiradi. Binobarin, demografik siyosatning obyekti ham, maqsadi ham, eng ta'sirchan va muhim vositalaridan biri oiladir.

Milliy axloqiy madaniyatning asosiy vazifalaridan biri – farzandlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir. Ota-onalar bola hayotida birinchi va eng muhim o'rnak hisoblanadi. Ularning axloqiy madaniyati, hurmat va mehr-muruvvati farzandning odob-axloqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Yaqin o'tmishda milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning oila tarbiyasi bilan munosabatlaridagi uyg'unlikka putur yetkazildi. Avvalo, milliy va umumbashariy merosga munosabatning biryoqlamaligi oila tarbiyasida bir qator salbiy xususiyatlarni keltirib chiqardi.

Jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi unutilayozdi, millat ruhining oynasi bo'lgan ona tilimizga munosabat salbiy ma'no kasb etdi. Madaniyati, tili, millatidan begonalashgan manqurtlar toifasi jamiyat va oila o'rtasidagi o'ziga xos uyg'unlikka putur yetkazishning oqibat natijasi edi. Holbuki, jamiyatda paydo bo'lgan har qanday ijtimoiy illat madaniyatga xos me'yoriy mezonlarning buzilishidan, oila tarbiyasi izdan chiqishidan hosil bo'lishi sir emas.

Mustaqillik qo‘lga kiritilgach, bu borada ham katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jumladan, oilaning jamiyat tayanchi, ma’naviy tarbiya o‘chog‘i sifatidagi roli e’tirof etildi, uning farovonligi — milliy farovonlik asosi ekani asosiy qonun — O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilab qo‘yildi. Ta’bir joiz bo‘lsa, ushbu so‘zlarda muqaddas Vatan timsoli bo‘lgan oila fenomeniga munosib baho berilgan.

Oila tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni shundan iboratki, ular farzandga sevgi, hurmat, sabr-toqat, hamkorlik, fidoyilik kabi sifatlarni singdiradi. Shu bilan birga, milliy an’ana va urf-odatlar bolaning milliy ongini shakllantiradi, u kelajakda jamiyatda mas’uliyatli va axloqiy yetuk shaxs bo‘lib voyaga yetishiga yordam beradi.

Oila tarbiyasida ayol markaziy ro‘l o‘ynaydi. U farzandning birinchi tarbiyachisi bo‘lib, nafaqat uning ma’naviy, balki milliy ongini ham shakllantiradi. Ayolning mehr-muruvvati, sabri, bilimi va axloqiy namunalari bola tarbiyasida asosiy vosita hisoblanadi.

- Ayol — oila munosabatlarining vujudga kelish sababchisi, avlodlar davomiyligining g‘oyasidir.
- Ayol — oila tarbiyasining bosh murabbiylaridan biri, ya’ni farzandning dunyoga kelishiga sabab bo‘luvchi, nasliy sifatlarni bir avloddan ikkinchi avlodga ko‘chiruvchi, avlod ma’naviyatiga asos soluvchi insondir.
- Ota va uning ajdodlariga, qarindosh-urug‘lariga, aka-uka, opa-singillarga, qo‘ni-qo‘shnilarga munosabat ham, avvalo, onadan, uning boshqalarga iliq munosabatidan boshlanadi.
- Jamiyatda insonparvarlik va adolat tuyg‘ulari ayoldan boshlanadi.
- Go‘zallikka, mehr-muruvvatga, imon-e’tiqodga tashnalik ham ayol tufaylidir.
- Ona tiliga munosabat, uni bilish va anglash jarayonida ayol mohir tilshunos missiyasini bajaradi.

- Nihoyat, ayol farzandga tarbiya va ta'lim berar ekan, o'z oilasidagi an'analarni davom ettiradi, oila shajarasini rivojlantiradi.

Tabiiyki, ayol ado etadigan mazkur xizmat va vazifalar jamiyatdagi ilg'or g'oyalarni, madaniyatni, ma'naviy-ma'rifiy omillarni boyitadi.

Sharqda ayollarga munosabatda adolat, insonparvarlik, teng huquqlilik mezonlari ustuvor bo'lganligi demokratik tamoyillarning vujudga kelishida muhim rol o'ynadi, keyinchalik esa bu tamoyillar G'arb tamadduniga, ayniqsa G'arb uyg'onish davriga kuchli ta'sir etib, uning keng yoyilishiga turtki berdi.

Biz odatda oilaga ta'rif berar ekanmiz, uni doimo jamiyat, yurt, Vatan so'zlari bilan yonma-yon ishlatamiz. Uni hamisha jamiyat tayanchi, el-yurt negizi, Vatan timsoli sifatida ta'riflashga harakat qilamiz. Masalan: "Oila — jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas."

Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbekistonliklarning aksariyati o'z shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasi, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'ni-qo'shnilarning omoneronligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir.

Oilaning sog'lom va barkamol avlodni shakllantiruvchi asosiy bo'g'in ekani va bu muhim vazifa ota-ona, farzandlar va nuroniy keksalar silsilasini yaxlit jarayon sifatida o'rganilgandagina kutilgan samaralarni beradi.

Oilani muqaddas deb bilish zahirida quyidagilar namoyon bo'ladi:

- Oila — ota-onam, aka-ukalarim va opa-singillarimning kindik qoni to'kilgan, ko'z ochib ko'rgan makonidir.

- Bu oilada, shuningdek, bobo va bobokalonlarim, momolarim yashagan, ularning ruhi barhayot.
- Binobarin, oilamiz tasodifan yuzaga kelgan ittifoq emas, u avlod-ajdodlarimizning navbatdagi bo‘g‘ini, biz esa uning davom ettiruvchisimiz.
- Oilamiz biz ko‘rib turgan darajaga o‘z-o‘zidan chiqib olgan emas; buning uchun ota-onam va ularning ota-bobolari tinimsiz mehnat qilgan.
- Shunday ekan, uni yanada rivojlantirish, yangi kamolot nuqtasigacha yuksaltirish mening burchim.
- Demak, men oila a‘zolarim oldida bir umrga ma‘naviy qarzdorman.

Agar oila muqaddasligi g‘oyasini kenja avlod vakillari tilidan ifoda etish mumkin bo‘lsa, u teng huquqlilik, erkinlik va oilaviy munosabatlar imon-e‘tiqod asosida qurilganligini aks ettiradi. Oiladagi mehr-oqibat, ezgulik va tartib-intizom hissi esa oila madaniyatining darajasini belgilaydi. Bu jamiyat va oilaning, milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyat tamoyillari hamda oila madaniyatining uyg‘unligini namoyon etuvchi mezondir. Sog‘lom muhitning ibtidosi ham oila, oila muhitidir. Oila muhitining sog‘lomligi esa jamiyatdagi ma‘naviy-ruhiy muhit bilan uyg‘un holdagina mavjud bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyat oila tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, oilani jamiyatning tayanchi va farovonlik manbai sifatida belgilaydi. Ayol oilada markaziy rol o‘ynaydi, u avlodlarni tarbiyalaydi, milliy va ma‘naviy qadriyatlarni davom ettiradi. Oila muqaddas bo‘lib, unda o‘zaro hurmat, tenglik, mehr-muruvvat va intizom prinsiplariga asoslanadi. Sog‘lom oilaviy muhit jamiyatdagi ma‘naviy-ruhiy rivojlanishning boshlang‘ich omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-T.: O‘zbekiston, 2023. 21-b
2. Sh.M.Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. Toshkent.2021-yil. 5-bet

3. To'raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida – Toshkent: O'qituvchi, 1992, 65-b.
4. Sharifxo'jaev M., O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – Toshkent: Sharq, 159-b.
5. Saifnazarov I. Oila barqarorligining ma'naviy asoslari. – T.: Fan, 1999. -125-b.